

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 111 (900), 2023-yil 7-iyun, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



OLY DARAJADAGI TASHRIF IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNI YANGI BOSQICHGA KO'TARISHGA XIZMAT QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy 5-6-iyun kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi.



Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yildan ziyod vaqt o'tgan bo'lsa-da, ilk bor amalga oshirilgan mazkur davlat tashrifiga keyingi yillarda jadal rivojlanib borayotgan hamkorlik natijasi sifatida alohida e'tibor qaratildi. Tomonlar tashrifga juda katta tayyorgarlik ko'rdi, imzoladigan salmoqli hujjatlar to'plami tayyorlandi.

Qatar Davlati Amirini 5-iyun kuni Samarqand xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari kutib oldi. Oliy martabali mehmonga yuksak hurmat-ehтиrom ko'rsatildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 6-iyun kuni Samarqand shahrida Qatar rahbarini rasmiy kutib olish marosimidan boshlandi.

Kongress markazi oldidagi maydonida faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston Prezidenti oliy martabali mehmonni samimiy kutib oldi va shohsupaga taklif qildi.

Harbiy orkestr ikki mamlakat madhiyalarini ijro etdi. Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiya a'zolarini qutladi.

Shundan so'ng Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning oliy darajadagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

Siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuv avvalida Qatar Amiri davlatimiz rahbariga tashrif bilan kelish taklifi hamda Qatar delegatsiyasiga

ko'rsatilayotgan iliq va samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

Diplomatik munosabatlar tarixida birinchisi bo'lgan ushbu oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berishi hamda uni keng qamrovli sheriklik darajasiga ko'tarishga xizmat qilishi qayd etildi.

— Biz Qatarni nafaqat Yaqin Sharq mintaqasida, balki butun arab-musulmon olamida o'zimizning istiqbolli hamkorimiz sifatida bilamiz. Siz bilan so'nggi yillardagi muloqotlarimiz bois munosabatlarmizda katta siljish kuzatilmogda, — dedi davlatimiz rahbari.

Joriy yilda Toshkent shahrida Qatar elchixonasi ochilgani ikki tomonlama hamkorlikni faol ilgari surishda muhim o'rin tutgani ta'kidlandi. Qatar tomoni Dohada O'zbekiston elchixonasi ochilishi ushbu jarayonga kuchli sur'at bag'ishlashiga ishonch bildirdi.

Tomonlar o'zaro savdo ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash, qo'shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar.

Qatarning yetakchi kompaniyalari energetika, gaz-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda umumiy qiymati 12 milliard dollardan ziyod yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

Istiqbolli loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida shu yil sentabr oyida O'zbekiston — Qatar investitsiya forumini o'tkazish hamda qo'shma loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish masalasini ko'rib chiqish taklif etildi.

Davlat rahbarlari Markaziy Osiyoni Ko'rfaz mamlakatlari bilan bog'laydigan eng qisqa, ishonchli va xavfsiz yo'laklarni shakllantirish muhimligini qayd etdilar.

Madaniyat, ta'lim va turizm sohalardagi almashinuvlarni faollashtirishga qara-

tilgan sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, shu jumladan, birgalikda madaniyat kunlari, konsert dasturlari, ko'rgazmalar, hunarmandchilik va pazandachilik namoyishlarini o'tkazishga kelishib olindi. Mamlakatlarning poytaxtlari o'rtasida yo'lga qo'yilishi rejalashtirilayotgan muntazam aviaqatnovlar ishbilarmonlik aloqalari va o'zaro sayyohlar oqimining o'tishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Tomonlar Afg'onistonga nisbatan pragmatik siyosat yuritilishi, mamlakat iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash va afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatilishi muhimligini ta'kidladilar.

Shu ma'noda, Transafg'on temir yo'lini barpo etish bo'yicha strategik loyihani amalga oshirishni birgalikda ilgari surish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv so'ngida shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy davlatimiz rahbarini Qatarga tashrif bilan kelishga taklif qildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy huzurida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan 15 ta ikki tomonlama hujjatni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Jumladan, quyidagilar qabul qilindi:

— Investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish hamda daromad va mulk soliqlarini to'lashdan bosh tortishni bartaraf qilish to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Bojxona ishlarida o'zaro ko'mak ko'rsatish to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Mehnat munosabatlari sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Diplomatik pasport egalari viza talblaridan ozod etish to'g'risida hukumatlararo bitim;

— Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo memorandum;

— Madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo memorandum;

— Savdo sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;

— Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;

— O'simliklari karantini va himoyasi sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;

— Sport va yoshlar ishlari sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;

— Toshkent va Doha shaharlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum.

Shuningdek, tashqi ishlar va adliya vazirliklari o'rtasida 2023-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturlari hamda Ustuvor investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo'shma platforma yaratish to'g'risida kelishuv imzolandi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy Samarqanddagi Kongress markazi bog'ida birgalikda daraxt ekdilar.

Bu O'zbekiston bilan Qatar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarda yangi bosqich boshlangani va yetakchilarning xalqlarimiz do'stligini mustahkamlash yo'lidagi qat'iy intilishi ramzidir.

Shu bilan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning O'zbekistonga davlat tashrifi yakunlandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
G'olib HASANOV,
O'ZA muxbirlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

GLOBAL IQTISODIYOT VA BARQAROR TARAQQIYOTGA OID DOLZARB MASALALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-iyun kuni Samarqand shahrida Xalqaro valyuta fondi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyevani qabul qildi.

O'zbekiston bilan Xalqaro valyuta fondi o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni, jumladan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, pul-kredit va fiskal siyosatni takomillashtirish borasidagi islohotlar kabi ustuvor yo'nalishlarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Keyingi yillarda XVF bilan hamkorlik sezilarli darajada faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bu davrda fondning 70 dan ortiq missiyasi O'zbekistonda bo'ldi, ekspert-texnik ko'mak kengayib bormogda.

XVF rahbari Kristalina Georgiyeva yangi O'zbekistondagi ortga qaytmas islohotlar dasturini to'liq qo'llab-quvvatladi hamda uning amalga oshirilishiga bundan buyon ham ko'maklashishga tayyorligini bildirdi.

Global iqtisodiyot va barqaror taraqqiyotga oid dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu bilan O'zbekiston Prezidentining Samarqandga tashrifi yakunlandi, davlatimiz rahbari Toshkentga qaytib keldi.

O'ZA

PREZIDENT SAMARQANDDAGI ZAMONAVIY MASSIV LOYIHASI BILAN TANISHDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqandga tashrifi doirasida "Shirin" massivining master rejasi taqdimoti bilan tanishdi.

Bu mahalla xalqaro aeroport yaqinida, Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan. So'nggi yillarda Samarqandda amalga oshirilgan bunyodkorlikka munosib tarzda ushbu hududda zamonaviy massiv qurilishi rejalashtirilgan. Buning uchun 389 gektar yer ajratilgan.

Loyihaga ko'ra, massivda ko'p qavatli uylar, maktab va bolalar bog'chalar, poliklinikalar, sport maydonlari va ko'ngilochar maskanlar bo'ladi. Yirik biznes va savdo majmualari iqtisodiyot rivojiga, ish o'rinlari ko'payishiga qo'shimcha impuls beradi. Massivni shahar bilan bog'lovchi

ko'prik va yo'llar, infratuzilma va kommunikatsiya tarmoqlari barpo etiladi.

Davlatimiz rahbari loyihani ilg'or shaharsozlik tajribasi asosida takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlarni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

BUGUNNING GAPI

MARKAZIY OSIYO — YEVROPA ITTIFOQI

JOZIBADORLIK MARKAZI, IQTISODIY IMKONIYATLAR MAKONI

O'zbekistonning so'nggi yillardagi xalqaro va mintaqaviy barqarorlikka erishishga qaratilgan tashqi va ichki siyosati Markaziy Osiyoda rivojlanishning yangi davrini boshlab berdi. Mintaqa mamlakatlari birgalikdagi intilishlari sabab yagona makon va maqsad sari birlashmogda.

Davomi 4-betda

NUQTAYI NAZAR

O'ZARO MANFAATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MUSTAHKAM ZAMIN

Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning O'zbekistonga ikki kunlik davlat tashrifi va Samarqandda o'tkazilgan oliy darajadagi muzokaralar natijalari xalqaro ijtimoiy-siyosiy hamda ekspertlar hamjamiyatining diqqat markazida bo'lib turibdi.

Davomi 2-betda

2023 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 9-IYUL PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Ulug'bek Inoyatovning saylovoldi tashviqotiga doir maqola chop etilmogda.

Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmogda.

3-betga qarang.

DOLZARB MAVZU

SAYLOV QONUNCHILIGI

XALQARO STANDARTLARGA TO'LA JAVOB BERADI

Anvar SHEROV,
"Taraqqiyot strategiyasi"
markazi eksperti

Joriy yil 30-aprel kuni O'zbekiston xalqi yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan referendumda faol ishtirok etib, o'z xohish-irodasini bildirgan edi. Bu bilan ko'p millatli xalqimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish yo'lida mutlaqo yangi bosqichga qadam qo'ydi.

Endigi navbat yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan prinsiplarni hech og'ishmasdan amalga oshirish, Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasiga o'tilgan katta rivojlanish bosqichidagi islohotlar samaradorligini ta'minlashdir.

Albatta, buning uchun o'tgan 6 yildan ziyodroq vaqt mobaynida yetarlicha tajriba to'plandi. Xususan, Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishda muhim natijalarni qo'lga kiritdik.

Yana bir tarixiy sana arafasida turibmiz. Joriy yil 9-iyul kuni muddatdan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tadi. Bu saylovning ahamiyati shundaki, unda xalqimiz o'z xohish-irodasini yana bir bor namoyon etadi va kelgusi taraqqiyotimiz manzillari aynan shunga bog'liq bo'ladi.

Demak, kun sayin qizg'in pallaga kirib borayotgan Prezident saylovini xalqaro standartlarga mos ravishda o'tkazish har jihatdan muhim. Shu o'rinda xalqaro saylov standartlari nimalarda aks etadi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Agar bu savolga aynan Prezident sayloviga xos jihatlar nuqtayi nazaridan javob beradigan bo'lsak, oltita muhim jihatlarni sanab o'tish kerak.

Birinchi, Prezident O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Bu Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan bo'lib, Saylov kodeksida ham o'z aksini topgan.

Ikkinchi, fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash hamda ularni himoya qilish, ko'p partiyaviylik va mafkuraning xilma-xilligi, saylovni tartibga soluvchi huquqiy normalar barqarorligi va ularning jadal demokratik rivojlanishi ochiq saylov jarayonlarini ta'minlashning asosiy shartlari bo'lishi talab etiladi.

Uchinchi, saylov organlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan ovoz berishni tashkillashtirish

va ovozlarni sanash, saylov jarayoni ishtirokchilarining saylov huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmi mavjudligi va samarali ishlashi, ovoz berish yakunlari va saylov natijalari ustidan sudga hamda boshqa vakolatli organlarga shikoyat qilish, saylovni, shu bilan birga, ovoz berishni tashkillashtirish, ovozlarni sanash, saylov natijalari e'lon qilishdek jarayonlarning muhim jihatlarni odilona kuzatish talab etiladi.

To'rtinchidan, saylovda barcha fuqarolar uchun teng sharoit va imkoniyat yaratish zarur. Bunda fuqarolar tushunadigan tilda axborot-targ'ibot vositalari yetkazib berilishi kerak.

Beshinchidan, saylov jarayonida gender tenglikni ta'minlash ham muhim. Gap shundaki, saylovni o'tkazishda uchastka saylov komissiyalari a'zolarini shakllantirishda ayollar ishtirokidan tortib, ovoz berish jarayoniga qadar xotin-qizlarning siyosiy huquqlari buzilmasligi yoki kamsitilmasligi kerak.

Oltinchidan, Prezidentlikka nomzodlarga targ'ibot-tashviqot o'tkazishi uchun bir xil sharoit va teng imkoniyat yaratish kerak, shuningdek, saylov jarayonini xalqaro kuzatuvchilar kuza-

tib borishi va tahlil qilishi uchun imkon berilishi maqsadga muvofiq.

Albatta, saylovga doir boshqa xalqaro standartlar ham ko'p. Aytaylik, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga egaligi, xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozimligi belgilangan. Shuningdek, bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, umumiy va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovda o'z aksini topishi lozimligi qayd etilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda esa davriylik prinsipi asosida saylov o'tkazish, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Kopengagen kengashi hujjatiga asosan, xalq irodasi davlat hokimiyatining asosi bo'lib xizmat qilishi uchun ishtirok etuvchi davlatlar qonunda belgilanganidek oqilona vaqt oralig'ida erkin saylov o'tkazishi belgilangan. Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi tomonidan qabul qilingan Saylovga oid yo'l-yo'riq tamoyillarida ham saylov davriylik prinsipi asosida muntazam o'tkazilishiga oid jihatlar ko'zda tutilgan.

Shu o'rinda yana bir muhim tamoyilga to'xtalib o'tsak. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byuro-si tavsiyalari asosida mamlakatimiz

“ AYNI KUNLARDA PREZIDENT SAYLOVI KAMPANIYASI TADBIRLARI MILLIY SAYLOV QONUNCHILIGI ASOSIDA AMALGA OSHIRILMOQDA. BU NAFAQAT XALQIMIZ, BALKI XALQARO HAMJAMIYAT UCHUN HAM KATTA VOQEELIKDIR. JARAYONLAR XORIJ DAVLATLARI E'TIBORIDAN HAM CHETDA QOLMAYDI. SAYLOVNI KUZATUVCHI XALQARO TASHKILOTLAR NIGOHI USHBU VOQEELIKKA QARATILISHI TABIIY.

Saylov kodeksiga qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, saylov komissiyalarining nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga oid vazifasi chiqarib tashlandi, saylovoldi tashviqoti davrida davlat resurslaridan foydalanish taqiqlandi. Saylov natijalarini e'lon qilish muddatlari asossiz cho'zilishining oldini olish maqsadida saylov komissiyalari qarorlari ustidan shikoyat muddati 10 kundan 5 kunga qadar qisqartirildi.

Biz sanab o'tgan bu jihatlardan ham ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda bo'lib o'tadigan Prezident saylovi xalqaro standartlar va me'yorlar asosida o'tishi uchun mustahkam zamin yaratilgan.

Albatta, bu jarayon o'tab qolgan yo'q. Aytish joizki, saylov o'tkazish uchun zarur sharoit yaratish demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatiga xos eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham xalqaro standartlarga to'la javob beradigan saylov qonunchiligi yaratilgan. Mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun

umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi hamda yashirin ovoz berish singari asosiy prinsiplar belgilangan.


Ayni kunlarda Prezident saylovi kampaniyasi tadbirlari milliy saylov qonunchiligi asosida amalga oshirilmoqda. Bu nafaqat xalqimiz, balki xalqaro hamjamiyat uchun ham katta voqeelikdir. Jarayonlar xorij davlatlari e'tiboridan ham chetda qolmaydi. Saylovni kuzatuvchi xalqaro tashkilotlar nigohi ushbu voqeelikka qaratilishi tabiiy.

Muxtasar aytganda, yurtimizda saylov qonunchiligi va amaliyoti, jumladan, Prezidentlikka nomzodlarga qonun yo'li bilan qo'yilgan talablarning barchasi umumiy e'tirof etilgan demokratik mezonlar va standartlarga to'la javob beradi.

Yana bir gap. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ana shunday demokratik o'zgarishlar jahon hamjamiyati diqqat markazida turibdi. Ushbu muhim siyosiy jarayonning yuqori saviyada o'tkazilishi yangi O'zbekistonda barpo etishda muhim qadam bo'ladi.

NUQTAYI NAZAR

O'ZARO MANFAATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MUSTAHKAM ZAMIN



Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston — Qatar oliy darajadagi sammiti doirasida imzolangan ikki tomonlama munosabatlarining huquqiy asoslarini sezilarli darajada mustahkamlagan salmoqli hujjatlar to'plami xorijda katta qiziqish uyg'otdi.

Shayx Saud Abdulrahmon Ol Soniy, Qatarning Pokistondagi elchisi:

— Qatar Amirining mamlakatlarimiz tarixidagi ilk davlat tashrifi muvaffaqiyatli o'tgani bilan butun o'zbek xalqini tabriklashga ijozat bergaysiz.

Rahbarlarimizning siyosiy irodasi va o'zaro qadamlari hamkorligimizni rivojlantirish uchun uzoq muddatli hamda mustahkam poydevor yaratish imkonini bermoqda.

So'nggi ikki yilda turli darajadagi tashqi ishlar idoralari delegatsiyalari tomonidan bir qator muhim tashriflar amalga oshirildi. Ushbu tarixiy tashrifga tayyorgarlik ko'rish imkonini berdi. O'tgan yildan boshlab mamlakatlarimiz o'rtasida havo qatnovi ochilgan bo'lsa, joriy yilning may oyida davlat tashqi ishlar vaziri Sulton bin Saad Al-Murayxining tashrifi chog'ida Qatarning O'zbekistondagi elchixonasi ochildi.

Tashrif oldidan O'zbekiston iqtisodiy majmuiga kiruvchi vazirlik va idoralarning vakillik delegatsiyasi Dohaga tashrif buyurdi. U yerda yuqori texnologiyali tarmoqlar — AKT, energetika, neft-kimyanoat, qishloq xo'jaligi, transport, shuningdek, madaniyat va turizm sohalarda ko'p millionli kelishuvlar imzolashga tayyorlandi.



Ikki yuzdan ortiq madaniyat namoyandalari, minglab shahar aholisi Amiri tarixiy Samarqand shahrida g'oyat iliq kutib olganini alohida ta'kidlamog'chiman.

Delegatsiya a'zolari menga Qatar Amirining muborak va qadimiy Samarqandda davlat rahbarining o'zi hamrohligida yuksak darajada samimiy qabul qilinishi o'chmas va beqiyos taassurot qoldirganini ta'kidladi. Amir Hazrati Oliyarlari boshqa shaharlarga qaraganda o'zbek xalqining ko'p asrlig tarixi, boy va o'ziga xos madaniyatini o'zida mujassam etgan, shubhasiz, Osiyoning qadimiy poytaxti bo'lgan Samarqandning g'ozalligi va betakrorligidan juda hayratlandi.

Ishonch bilan ayta olamanki, ushbu tashrif kelgusi yillar davomida o'zaro manfaatli hamkorligimiz va integratsiyamizni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Moxammadreza Abesh Ahmadlu, Eronning ingliz tilida chop etiladigan "Iran Daily" gazetasi muxbiri:

— Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning O'zbekistonga davlat tashrifini katta qiziqish bilan kuzatdim. Jumladan, oliy darajadagi tashrif mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan keyingi 25 yil ichida ilk bor amalga oshirilmog'da.

Tarixga nazar tashlasak, Qatar 1991-yil 30-dekabrda O'zbekiston mustaqilligini birinчилardan bo'lib tan olgan arab davlatidir. O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi munosabatlarni, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy sohani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun ulkan salohiyat mavjud. Oliy darajadagi faol siyosiy muloqot ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Qatar — O'zbekiston hamkorligi Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda aloqalarni kengaytirish uchun yangi istiqbollar ochadi.

Namiq Aliyev, Ozarbayjon Davlat boshqaruvi akademiyasi xalqaro aloqalar va tashqi siyosat kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor, Favqulodda va Muxtor elchi:

— Ushbu tashrif O'zbekiston — Qatar munosabatlarida yangi, tarixiy bosqichni ochadi. Tashrif ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Samarqanddagi sammit hamkorlikning yangi bosqichini boshlash uchun muhim siyosiy qadam bo'ladi. Ushbu hamkorlik faol, konstruktiv va o'zaro manfaatli muloqot sifatida tavsiflangan ko'p qirrali va izchil o'sishga o'tishi juda muhim. Buning uchun ikki davlatning tarixi, madaniyati va dinining mushtarakligi, boy ma'naviy merosi qulay zamin bo'lmoqda.

2022-yil 14-15-sentabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti doirasida Qatarning SHHTga



Qatarning ulkan moliyaviy, sarmoyaviy va ilmiy-texnik salohiyati uni yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi dasturlarini amalga oshirish va keyingi rivojlanishda muhim hamkorlardan biriga aylantiradi, chunki rasmiy Doha Markaziy Osiyoda barqaror manfaatlariga intilmoqda. Rasmiy Toshkent va Doha o'rtasida energetika va turizm sohalarda hamkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu sohalardagi hamkorlik ikki mamlakat iqtisodiy manfaatlariga javob beradi.

Muhammad Vadi G'azzi, Misrning "See News" axborot agentligi bosh muharriri:



— Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning O'zbekistonga ilk davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda muhim o'rinni egallaydi. O'zaro savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalar rivojlanishi turli sohalarda yangi loyihalarni amalga oshirishga yo'l ochadi.

Oliy darajadagi uchrashuv va muzokaralar davomida erishilgan kelishuvlar rasmiy Toshkent va Dohaning o'zaro hamkorlikni jadallashtirishdan birdek manfaatdor ekani va bunga qiziqishi yuqori qilib dalolatdir.

O'zbekiston tashqi siyosiy aloqalarini diversifikatsiya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu tashrif nafaqat ikki tomonlama hamkorlik, balki O'zbekistonning arab dunyosi mamlakatlari bilan aloqalari yanada mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

“ O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati butun turkiy dunyoning hurmati va qo'llab-quvvatloviga sabab bo'lib, u mintaqada tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlash, Sharq xalqlari farovonligini oshirishga qaratilgan.



O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining diplomatik munosabatlarni munosib darajada saqlab turishdagi faol rolini ham qayd etmoqchiman: delegatsiyalar almashinuvi, siyosiy maslahatlashuvlar va muzokaralar, Qatardan oliy delegatsiyalarni qabul qilish menga tanish bo'lgan mashaqqatli kundalik ishlardir.

XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD DASTURIDA

IJTIMOY DAVLAT KONSEPSIYASI

Joriy yil 5-iyun sanasida Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Ulug'bek Ilyosovich Inoyatovni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod sifatida ro'yxatga oldi. Partiyamizdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod dasturi shu yil 29-may sanasida bo'lib o'tgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining XIII qurolligida bir ovozdan ma'qullangan edi.

Mazkur dasturda kuchli ijtimoiy siyosat, arzon uy-joy va sifatli kommunal xizmatlar, kafolati va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish, yoshlar uchun ta'lim kafolatlarini mustahkamlash, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, tovar va xizmatlarning ijtimoiy maqbuli, ijtimoiy tenglikka asoslangan demokratiya, sud-huquq islohotlari, konstruktiv tashqi siyosatga oid 9 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha aniq va manzilli taklif hamda tashabbuslar ilgari surilgan.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining dasturiy maqsadi — ijtimoiy davlat konsepsiyasi. Shu bois, nomzodning dasturida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan ijtimoiy davlat maqomidan kelib chiqib, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini samarali amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlash hamda demokratik ijtimoiy davlatni barpo etishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining dasturiy maqsadi — ijtimoiy davlat konsepsiyasi. Shu bois, nomzodning dasturida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan ijtimoiy davlat maqomidan kelib chiqib, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini samarali amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlash hamda demokratik ijtimoiy davlatni barpo etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, ijtimoiy siyosat har bir davlat rivojlanishi va boshqaruvining, ta'bir joiz bo'lsa, tayanch ustunidir. Jamiyatdagi turli shaxslar va turli guruhlarning o'rtasidagi tenglikni tartibga solishda, ijtimoiy adolat va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda uning o'rnini beqiyos. Tadqiqotchi olimlar ijtimoiy siyosatni tarixiy fenomen sifatida XX asming ikkinchi yarmida qaror topgan, degan qarashni ilgari sursalar-da, olis moziy insoniyat tamaddunida ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda iqtisodiy, huquqiy va boshqa ta'sir mexanizmlarini amalda qo'llagan davlatlar safi oz bo'lmaganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy davlat barpo etishni o'zining eng oliy maqsadi, deb bilgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining mamlakat Prezidentligiga nomzodi tomonidan ilgari surilayotgan dastur aynan shu haqiqat asosiga qurilgan.

Mohiyatan turli ijtimoiy guruhlarning va shaxslarning iqtisodiy holati, ular o'rtasidagi daromadlar, iste'mol ko'rsatkichi, mehnat sharoitlari, sog'liqni saqlash va boshqalar bo'yicha farqlarni aniqlab, tengsizlik sabablarini o'rgangan holda mavjud ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etishning uzil-kesil chora-tadbirlarini taklif qilayotgan ushbu dastur "Davlat aholi manfaatlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish lozim", degan pozitsiyani tutgan holda, qator aniq va puxta g'oya-tashabbuslarni qamrab olgan.

Ma'lumki, mamlakatimizda xususiy sektor rolini yanada oshirish yo'lidagi islohotlar salohiyatli mulkdorlar safining tobora kengayishiga zamin yaratmoqda. Ular el-u yurt ravnaqini jadallashiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Bu yaxshi, albatta. Shu bilan birga, davlat va jamiyat ko'magining u yoki bu shakllariga ehtiyojmand qatlam vakillari ham bor. Keksalar, nogironlar, boquvchisini yo'qotganlar, ishsizlar, bolalar hamda boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar mavjudligi e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Mustaqil taraqqiyot yo'lidagi dastur odatidagi O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida namoyon bo'lishi tabiiy. Jumladan, buning huquqiy negizini O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1-moddasida belgilangan asosiy qoidalar tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan dasturda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishda, avvalambor, aholining ehtiyojmand qatlamlari yashash sharoitlarini yanada yaxshilash kerakligi bayon etilgan sababi ham shunda.

To'g'ri, davlatimiz o'tgan yillar davomida oson bo'lmagan bu vazifani ma'lum darajada uddalab kelmoqda. Ta'lim, tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy qatlam va



killarini moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash sohalarda ko'pgina davlatlarga ibrat bo'lgulik tajriba shakllandi.

Biroq har bir insonning baxti va farovon yashashga haqqi bo'lganidek, ehtiyojmand fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun bugungi davr davlatimiz oldiga yangidan-yangi vazifalar qo'yilmoqda. Ayniqsa, o'tgan yillar davomida sodir bo'lgan global pandemiya va uning oqibatlarini jamiyatda barqaror kayfiyat bo'lishi uchun izchil ijtimoiy islohotlar nechog'liq muhimligini ko'rsatadi.

Ehtiyojmand qatlam vakillarining turmush darajasini ko'tarish haqida so'z borar ekan, bunda eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida kambag'allik chegarasini qayta ko'rib chiqish hamda undan past daromad oluvchi fuqarolarga amaliy ko'maklashish chora-tadbirlarini yangi bosqichga olib chiqish talab etiladi. Dasturda buning mantiqiy davomi sifatida har bir insonning birlamchi hayotiy ehtiyojlariga yetadigan eng kam iste'mol xarajatlarini qonun darajasida belgilash, ushbu maqsadda "Eng kam iste'mol xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan.

Chunki har yili mamlakatimizda minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasi inflyatsiya darajasidan kelib chiqib e'lon qilinayotganiga qaramay, bu borada ma'lum bir huquqiy bo'shliqlar yuzaga kelgani sir emas. Ayni yo'nalishda xalqaro standartlarga mos, takomillashgan tashkiliy-huquqiy mexanizmi shakllantirish hamda jamiyatimizda yuzaga keladigan bu boradagi muhim savollarning huquqiy jihatdan yechimini topish vaqti kelgan.

Dasturda har yili yuzlab emas, balki yuz minglab ishga layoqatli yigit-qizlar kirib kelayotgan mehnat bozorini tartibga solish, fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish va shu orqali kambag'allikni qisqartirish, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga har taraflama g'amxo'rlik qilish kuchli ijtimoiy siyosat yuritishda navbatdagi dolzarb vazifa sifatida keltiriladi.

Bunda, ayniqsa, yurtimiz aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etadigan yoshlar kasb-hunar tanlashi, bepul ta'lim olishi, o'quv muassasalarini tugatgandan so'ng ishga joylashishi kafolatlarini mustahkamlash, ish bilan ta'minlanmagan fuqarolarni, xususan, ishsiz ayollar sonini kamaytirish, fuqarolar kambag'allik holatiga tushib qolishining oldini olish yoki kambag'allik toifasiga kirgan fuqarolarni undan chiqarish bo'yicha davlat tomonidan tegishli choralarini ko'rish ayni muaddodir.

Ta'kidlash kerakki, bugun jamiyatimiz hayotida uchrayotgan aksariyat muammolar, yoshlar, xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar ortida ko'pincha ishsizlik bilan bog'liq ma-

salalar turadi. Shu sababdan bu borada yanada samarali yechimlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Nomzod dasturida kam ta'minlangan, lekin boqimandlik kayfiyatida yurgan fuqarolarni jamiyatimizning faol ishtirokchisiga aylantirish masalasi ham alohida ko'rsatilgan. Bu nima degani? Nahotki, odamlarimiz orasida hamon boqimandlik kayfiyati kuzatilayotgan bo'lsa?

Xalqimizning omilkorlik, mehnat-sevarlik fazilatlariga aslo daxl qilmagan holda, bilagida kuchi bor-u, eshigi og'zida qarovsiz yotgan o'n sotix yerga bitta nihol qadashni istamaydiganlar ham uchrab turishini yashimaylik. Qo'pol qilib aytganda, "Bersang — yeyman, ursang

Har qanday davlat taraqqiyoti, undagi ijtimoiy-ma'naviy muhit yana bir ehtiyojmand qatlam — nogironligi bor shaxslarga nisbatan munosabat orqali ham aniqlanadi. Afsuski, jamiyatimizda hamon shunday stereotiplar borki, turli sabablarga ko'ra imkoniyati cheklangan insonlarga ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda faollik ko'rsatishiga ko'p ham imkon berilavermaydi.

Ularning ta'lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, mehnat qilish huquqlarini ta'minlashda o'zini oqlamagan ayrim tartib-me'yorlardan voz kechilganicha yo'q. Bu toifa insonlarga e'tibor birgina binolarda lift yoki pandus o'rnatish, oylik nafaqasini berish bilangina chegaralanmaydi. Hozirgi zamon barcha fuqarolar,

XDPdan O'zbekiston Prezidentligiga nomzod U.Inoyatovning dasturi kuchli ijtimoiy siyosat yuritish g'oyasi bilan sug'orilgani uning tom ma'noda insonparvarlik va taraqqiyot tamoyillariga uyg'unligini ko'rsatadi.

Uy-joy siyosatida ijtimoiy adolat mezonlari ustuvor bo'lmog'i kerak. Har bir insonning farovon va xotirjam yashashida ilm olish, kasb-hunar egallash, ishsizlikdan himoyalash kabi haq-huquqlari qatorida uy-joy bilan ta'minlanishi ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, xalqimiz uyli-joyli bo'lishni munosib hayot kechirishning asosiy shartlaridan, deb biladi. "Uyi borming o'yi bo'lmaydi", "Uy — Vatan ichra vatan", "O'z uyim — o'lan to'shagim" singari maqollar-unaqlar jamiyatimizga shu qadar singib ketganki, hali murg'ak o'g'liga ezgu niyat bilan imorat solish uchun terak ekishdek odatlarimiz zamonlar o'zgarsa-da, unutilgani yo'q. Chindan ham insonning hayotiy ehtiyojlari, avvalo, muqim va qulay boshpanaga ega bo'lishdan boshlanadi. Axir uying bo'lsa, ko'ngling tinch, turmushing halovatli, ro'zg'oring but bo'ladi. Darvoqe, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham har kimning uy-joyli bo'lish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi (47-modd).

Shu munosabat bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillarini, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, ehtiyojmand va yosh oilalar, alohida yordamga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, ularga subsidiyalarni berish, imtiyozli va uzoq muddatli ipoteka kreditlari ajratish qamrovini oshirishimiz hamda ularni shu yo'l orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sur'atini yanada kengaytirishimiz lozim.

Xalq demokratik partiyasining O'zbekiston Prezidentligiga nomzodi dasturida bu savolga javoban mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar qamrovini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yanada yuqori darajaga ko'tarish zarurati mavjudligi qayd etiladi. "Biz kambag'allarga, jumladan, nogiron bo'lgan shaxslar, nogiron farzandlarni tarbiyalayotgan ota-onalar, og'ir ijtimoiy ahvolda tushgan ayollar uchun arzon

qulayliklarni yaratish zarurati mavjud. Demak, ushbu maqsadlarga xalqaro ilg'or tajribalar asosida qurilish materiallari va konstruksiyalar ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlarni jamiyatga tatbiq qilish hamda bu jarayon davlat tomonidan rag'batlantirilishi orqali erishish mumkin.

Dasturdagi kam ta'minlangan aholi uchun arzon uy-joy qurishga imtiyozli ipoteka krediti berish amaliyotini yanada kengaytirish va qonun darajasida tartibga solish, "Uy-joy qurilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonunni qabul qilish tashabbuslarini ham bugun jamiyatimizda ushbu jabhadagi muammolarning xalqchil yechimi bo'la oladi, deyish mumkin.

Uy-joy qurilishi 2020-yildan e'tiboran nodavlat sektor qo'liga o'tgani aholining bu boradagi ehtiyojini to'la qondirishga, sohada raqobat muhitini yuzaga keltirishga xizmat qilmoqda. Lekin turar joylar barpo etishda aholi mablag'larini jalb qilgan ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan shartnoma shartlarini o'z vaqtida va sifatli bajarmaslik holatlari yuz berayotgani taassufli.

Yangi qurilayotgan ko'p qavatli turar joydagi xonadon uchun boshlang'ich badal pulini to'lab, bu uy bitishini bir necha yillardan buyon kutayotgan, o'zi esa ijarada yashayotgan oilalar uchraib turibdi. Mana shunday qonunbuzilishlarni bartaraf etish uchun turar joylarni qurishga jalb qilingan aholi mablag'larini himoyalash kafolatlari tizimini yaratish, buning uchun esa "Ko'p kvartirali uylar va boshqa ko'chmas mulk obyektlarini ulush qo'shgan holda qurishda ishtirok etish to'g'risida"gi qonunni amaliyotga kiritish hayotiy zaruratga aylandi.

Ma'lumki, bu yilgi qish faslining nisbatan ayozli kelgani, bahor mavsumi ilk pallasidagi seryog'in kunlar, yoz faslining yildan-yilga jazirama bo'lib borayotgani joylarda kommunikatsiya tizimidagi va kommunal xizmatlardagi kamchiliklarni ro'y-rost ko'rsatib bermoqda. Shunisi aniqki, bugun fuqarolar sifatli kommunal xizmatlardan foydalanishi uchun davlat tomonidan qo'shimcha aniq va zarur amaliy chora-tadbirlarni kutmoqda.

XDP nomzodi dasturida masalaning bu jihatiga ham to'xtalib o'tilgani, aholini arzon elektr energiyasi, issiqlik va issiq suv tizimi bilan ta'minlash bo'yicha hududiy investitsiya dasturlarini davlat-xususiy sheriklik tartibida amalga oshirish, kommunal xizmatlar tariflari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish vazifalari belgilangan maqsadga muvofiqdir.

Yana bir muhim masala. Yurtimiz hududlarida, asosan, poytaxt tumanlarida bunyodkorlik ishlarini olib borishda noqonuniy qurilishlar ham uchrayotganini yashirishning hojati yo'q. Tadbirkorning qaysidir yo'llar bilan qonun ruxsat etilmagan obyektini (ko'pincha ko'p qavatli uy-joylar) qurishga urinishi va ba'zi hollarda buning uddasidan chiqishi aloqqaqat texnik va ma'nan eskirgan kommunal tizimlarga ortiqcha bosimni paydo qilaypti, ko'p yillik daraxtlarni kesib tashlab, atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazaypti.

Xullas, bugun odamlarimizni rajiyyatog'lan bunday o'zbo'shimchiliklarning oldini olishda davlat bilan bir qatorda jamoatchilik nazorati instituti ham ishlashi shart. Shuni inobatga olgan holda, dasturda turli noqonuniy qurilishlarni to'xtatishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqbul chora sifatida keltiriladi. Shaharlarimizda, aholi yashash punktlarida yashil hududlarni, istirohat bog'larini, bolalar o'yin maydonlarini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning dam olish sharoitlarini yaxshilash hamda shaharsozlik loyihalarini amalga oshirish yo'lida qonun normalari talablariga asoslangan holda inson omilini birinchi planga qo'yish asosiy vazifamiz hisoblanadi. Aslida, ijtimoiy adolat zamirida ham insonlarni rozi qilish, ko'makka muhtoj qalblarga umid va ishonch berishdek ezgu niyat mujassam.

Dilbar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zXDP fraksiyasi a'zosi

2023
9-IYUL

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

MAMLAKATIMIZDA 60 VA UNDA KATTA YOSHDAGI FUQAROLAR SONI YILDAN-YILGA OSHIB BORAYOTGANINI INOBATGA OLIB, XDP NOMZODI DASTURIDA PENSIYA HAMDA IJTIMOY NAFAQALARNING INSON HAYOTIY EHTIYOJLARINI TO'LAQONLI QONDIRISHIGA ERISHISH MAQSADINI USTUVOR QILIB KELTIRGANI E'TIROFGA LOYIYQ YANA BIR JIHATDIR.

shu jumladan, nogironligi bor shaxslar uchun o'z haq-huquqlaridan foydalanishda teng imkoniyatlar beradigan inklyuziv jamiyatni yaratishni, davlatdan barcha dasturlarda nogironlar ehtiyojlarini hisobga olish va ular hayotning barcha jabhasida ishtirok etishini kafolatlash majburiyatini talab qilmoqda.

Dasturda mazkur yo'nalishda milliy qonunchilikni BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi tamoyillari va me'yorlariga muvofiqlash-tirish, nogironligi bo'lgan shaxslarga oid xalqaro me'yorlar va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, mamlakatimizda BMTning Nogironlarga nisbatan umumijahon harakatlar dasturini amalga oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifalari o'z ifodasini topgan. Bularning bari, pirovardida, nogironligi bor insonlarning turmush sifatini yaxshilashda xalqaro ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etishga keng yo'l ochadi.

Fuqarolari uchun farovon hayot yaratishni, barqaror rivojlanish yo'lini tanlagan davlat borki, bu chaqiriqlarga e'tiborsiz bo'lmaydi. Inchinun, O'zbekiston ham.

uy-joylar qurilishini yanada kengaytirish taraqqiyotini, deyiladi unda. Va mazkur masalaning yechimi sifatida bir qator vazifalar keltiriladi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 57-moddasida belgilanganidek, "mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida" ekanligi dasturimizda ko'rsatilgan vazifalarning huquqiy asosi hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida qurilish materiallari va konstruksiyalar ishlab chiqarishni rag'batlantirish shular sirasidandir.

Ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlari sharoitida mahalliy qurilish materiallari narxi va sifati hamon bahstlab ekani tabiiy. Shuning uchun yangi qurilayotgan uy-joylar tannarxi borasida ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlam vakillari uchun ham malol kelmaydigan darajada sharoit yaratish choralarini ishlab chiqish, turli yoshdagi odamlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularga barcha

BUGUNNING GAPI

MARKAZIY OSIYO — YEVRONA ITTIFOQI

JOZIBADORLIK MARKAZI,
IQTISODIY IMKONIYATLAR MAKONI

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo munosabatlari rivojida mamlakatimizda jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash va shu orqali milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning faol joriy etilishi muhim rol o'ynadi. 2021-yil 10-apreldan boshlab



Jasurbek OTANIYAZOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Ayni jarayon ko'plab rivojlangan mamlakatlarni Markaziy Osiyo bo'yicha strategik hamkorlik munosabatlarini yanada faollashtirishga undamoqda. Zero, mintaqaviy hamkorlikning bugungi bosqichida zamon talabiga mos tashabbuslar o'zaro manfaatli sheriklikni samarali ro'yobga chiqarishi mumkin.

oyida Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan boshlangan. Muloqot doirasida mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash borasida hamkorlik qilib kelinmoqda.

2004-yildan 2006-yilgacha bo'lgan davr mobaynida ushbu muloqot doirasida uchta muhim uchrashuv — Bishkek (Qirg'iziston, 2004-yil), Brusel (Belgiya, 2005-yil) va Olmaotada (Qozog'iston, 2006-yil) bo'lib o'tdi. 2007-yildan boshlab Germaniya tomoni tashabbusi bilan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi qabul qilinishi ortidan tashqi ishlar vazirlari darajasida uchrashuvlar o'tkazila boshlandi.

Tashqi ishlar idoralari rahbarlari darajasida Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo vazirlar uchrashuvi o'tkazilishi muntazamlik kasb etishi barobarida xuddi shunday formatda muntazam uchrashuvlar o'tkazishning boshqa mexanizmlari ham yo'lga qo'yildi. Xususan, parlamentlararo aloqalar, iqtisodiyot, savdo, investitsiya, demokratiya, inson huquqlari, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslari masalalar bo'yicha tegishli idoralar o'rtasida muntazam uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

2019-yilda Yevropa Ittifoqining mintaqaga oid yangilangan strategiyasi qabul

mustahkamlash bo'yicha vazirlar konferensiyasi ish boshladi.

Mazkur hujjatda Osiyoning Yevropa uchun, o'z navbatida, Yevropaning Osiyo uchun muhim ahamiyat kasb etishi, tashkilot doirasidagi rivojlanishni yanada yuqori bosqichga olib chiqish uchun Osiyo mamlakatlaridagi tinchlik va barqarorlik muhim omil ekani, shu bois, iqtisodiy diplomatiya va Osiyoda xavfsizlik sohasidagi ishtirokni faollashtirish

“ O'ZBEKISTONNING YEVRONA ITTIFOQI MAMLAKATLARI BILAN SAVDO AYLANMASI 2022-YILDA 4,5 MILLIARD DOLLAR BO'LGANI HOLDA, 2017-YILDAGI KO'RSATKICHGA NISBATAN 1,5 MILLIARD DOLLARGA OSHDI. GERMANIYA, LITVA, ITALIYA, POLSHA, FRANSIYA VA LATVIYA O'ZBEKISTONNING YEVRONA ITTIFOQI BILAN SAVDO ALOQALARIDA FAOL HAMKORLIK QILIB KELAYOTGAN DAVLATLARDIR.

zarurligi qayd etilgan. Osiyo mamlakatlari Yevropa Ittifoqi bilan transport aloqalari, energetika va raqamli tarmoqlar yaratish, insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash, Osiyo mamlakatlari va tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish,

gratsiyalashuvining eng muhim omili sifatida savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari sirasiga kiradi. U Yevropa Ittifoqi tomonidan MDH davlatlariga texnik yordam ko'rsatish hamda tashkilotni Osiyo mintaqasi bilan bog'lovchi transport yo'lagini bunyod etish maqsadiga yo'naltirilgan loyihalardan biridir.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari doirasida transport sohasidagi hamkorlikni kengaytirishda transport infratuzilmalarining o'zaro bog'liqligini mustahkamlash va yanada qulay shart-sharoit yaratish, xalqaro transport va tranzit yo'laklarini rivojlantirish, shuningdek, samarali transport-logistika infratuzilmasini shakllantirish mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda juda muhim o'rin tutadi. Shu bois, samarali hamkorlik va mintaqaviy integratsiyalashuvni kuchaytirishda moliyaviy va investitsion imkoniyatlardan foydalangan holda, transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha maqsadli loyihalarni amalga oshirish-



Hozirgi davrda Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari ikki tomonlama hamkorlik qilish to'g'risida amaldagi kelishuvlarga ega. Xususan, Qozog'iston 2015-yil dekabr oyida Chuqurlashtirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi kelishuvni imzolagan, hujjat 2016-yil may oyidan kuchga kirgan. Qirg'iziston esa 1995-yil fevral oyida Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi kelishuvga imzo chekdi va hujjat 1999-yil iyul oyidan buyon amal qila boshladi.

1996-yil 26-iyunda Florensiya shahrida O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi o'rtasida imzolangan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim, uning 1999-yil 1-iyuldan e'tiboran kuchga kirishi yur-timzining Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi. 2017-yilda O'zbekiston ushbu kelishuvni yangilash taklifini bildirdi. Yevropa Ittifoqi bilan Chuqurlashtirilgan sheriklik to'g'risidagi yangi kelishuvni imzolash bo'yicha muzokaralar rasman 2018-yil noyabr oyidan boshlandi.

Tojikiston 2004-yil oktabr oyida Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi kelishuvni imzoladi, 2018-yil noyabr oyida esa Hamkorlik to'g'risidagi yangi kelishuvni imzolash bo'yicha muzokaralar olib borish istagini bildirdi. Turkmaniston ham 2010-yil avgust oyidan buyon Yevropa Ittifoqi bilan Savdo masalalari to'g'risidagi oraliq kelishuv asosida hamkorlik qilib kelmog'da.

Mintaqaviy jihatdan Markaziy Osiyo ulkan xomashyo zaxiralari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, yangi innovatsion ishlanmalar, malakali ishchi kuchi va inson kapitali, texnologik imkoniyatlar borasida yuqori salohiyatga ega. Shu jihatdan olib qaralganda, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish mintaqaviy darajada iqtisodiy samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi tashqi savdo barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda. Xususan, 2022-yilda o'zaro tovar ayir-boshlash hajmi 61 foiz oshib, 47,5 milliard yevroni tashkil qilgan. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 2022-yilda 4,5 milliard dollar bo'lgani holda, 2017-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 milliard dollarga oshdi. Germaniya, Litva, Italiya, Polsha, Fransiya va Latviya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan savdo aloqalarida faol hamkorlik qilib kelayotgan davlatlardir. Masalan, Germaniya bilan 2017-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 613,1 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga ko'ra bu ko'rsatkich 1159,3 million dollarga yetdi, boshqacha aytganda, qariyb ikki barobar oshdi.

Germaniya 2022-yilda tashkilotga a'zo mamlakatlar ichida O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, jami savdo aylanmasining 2,3 foizini tashkil qilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda Germaniya O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi hajmida yuqori ulushga ega bo'lgan o'nta mamlakat qatoridan joy olib kelmog'da.

O'zbekistonning Italiya bilan tovar ayirboshlash hajmi ham yuqori sur'atlarda oshib bormog'da. Xususan, 2017-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 172,3 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 379,2 million dollarga yetdi. Polsha bilan esa 2017-yildagi 104,9 million dollardan 2022-yilda 345 million dollarga teng bo'ldi. U 2022-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ichida O'zbekiston uchun mahsulotlar eksportida yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.

Fransiya bilan tovar ayirboshlash hajmida ham joiy tendensiyalar kuzatilmog'da. Xususan, 2022-yilda bu boradagi ko'rsatkich 339,5 million dollarni tashkil qildi va 2017-yildagidan 88,1 million dollarga ko'paydi.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus preferensiyalar tizimi — "GSP+" doirasidagi imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgani alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki "GSP+" tizimi savdo siyosati vositasi bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlardan olib kirilayotgan tovarlarni bojxona bojlaridan ozod qilishni nazarda tutgan holda, benefitsiar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu esa Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarda muhim bosqich bo'lib, tomonlar o'rtasidagi muloqotni hamda savdo almashinuvini yanada chuqurlashtirishga imkon yaratmog'da.

Mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo hamkorligini rivojlantirish doirasidagi faoliyatni tashabbuskorlik va pragmatizm tamoyillari ustuvor bo'lib borayotganini alohida qayd etish lozim. So'nggi yillarda O'zbekiston mintaqaviy aloqalarni kuchaytirish va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida muhim tashabbuslarni ilgari surmog'da. Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi strategik hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda O'zbekiston tashabbusi bilan 2022-yilda Samarqandda "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'zaro bog'liqligi: barqaror rivojlanish uchun global darvoza" mavzusidagi birinchi konferensiya tashkil etilgan va unda mintaqaviy darajada savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish uchun transport kommunikatsiyasi tizimlari, energetika va raqamli infratuzilmalarni rivojlantirish hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilinishi alohida e'tirof etish lozim.

Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi mintaqaviy hamkorligining amaliy davomi sifatida 2023-yil 2-iyun kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi ikkinchi sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda O'zbekiston tomonidan Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish bo'yicha dolzarb ahamiyatga ega tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, sammit davomida savdo munosabatlarini tubdan kengaytirish, eng avvalo, barqaror savdo logistikasi zarjilarini va mahsulot yetkazib berishni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratish, o'zaro bog'lanigan transport yo'laklarini shakllantirish, investitsiyaviy, texnologik sheriklikni rivojlantirish, raqamli o'zaro bog'liqlik sohasida Yevroititfoq bilan yaqindan hamkorlik qilish, iqlim sohasidagi xatarga qarshi kurashish, turizmni rivojlantirish hamda yoshlar ta'limiga investitsiya kiritish borasida ilgari surilgan tashabbuslar katta qiziqish bilan qabul qilindi.

Bugun Markaziy Osiyo Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari uchun jozibadorlik markazi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoniga aylandi. Binobarin, hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda barqaror energetika tizimini yaratish, professional ta'lim sohasini rivojlantirish, zamonaviy sanoat quvvatlarini barpo etish, "aqlli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish, rivojlan-gan transport logistikasi infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lami-loyihalarni amalga oshirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi o'zaro manfaatli va samarali hamkorlikni kengaytirish, mamlakatlarning qulay investitsiyaviy va ishlabarmonlik salohiyatidan to'laonli foydalanish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish asosida savdo-iqtisodiy faoliyatni faollashtirish mintaqaviy darajadagi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda taraqqiyotni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



qilinishi bilan mintaqalararo muloqotning yangi formatlari — Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi, Fuqarolik jamiyati forumi faoliyati yo'lga qo'yildi. Yangi strategiya "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: hamkorlikni mustahkamlashdagi yangi imkoniyatlar" deb nomlanib, unda istiqbolda mintaqaviy darajada hamkorlik aloqalarini amalga oshirishga tegishli bo'lgan muhim strategik masalalar o'z aksini topgan. Yevropa Ittifoqining mintaqaga bilan

turli moliyaviy vositalardan foydalangan holda, barqaror moliyalashtirish tizimini rivojlantirish kabi asosiy sohalarda bo'yicha hamkorlik qilinishi belgilangan.

Strategiyada rejalashtirilgan yo'nalishlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, savdo-iqtisodiy va transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi hamkorlik aloqalari turli loyiha va dasturlar asosida ilgariidan yo'lga qo'yilgan bo'lib, mintaqada mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynamoqda.

shu jumladan, mamlakatimiz tomonidan ham faol amalga oshirib kelinmoqda. Chunki ushbu loyihaning muvaffaqiyati natijasida mintaqalararo transport infratuzilmasi rivoji va bu orqali mintaqada davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalarida qulay shart-sharoitlar yaratilishiga hamda butun transport yo'lga'lab tovarlarning harakatlanishidagi to'siqlarni kamaytirishga erishiladi.

Ikki yirik tashkilot va mintaqada mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlashning muhimligini Markaziy Osiyoning Yevropani Osiyo bilan bog'laydigan strategik va qulay geografik joylashuvi, mintaqada mamlakatlarning Yevropa Ittifoqiga energiya manbalari import qilishda katta ulushga egaligi, qariyb 80 millionga yaqin aholisi bor mintaqaning yuqori bozor salohiyati kabi omillar bilan izohlash mumkin.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik so'g'lom va ochiq investitsiya muhitini, raqobatbardosh xususiy sektorni yaratish, yoshlar o'rtasida tadbirkorlik, tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mintaqada mamlakatlari o'rtasida ichki mintaqaviy savdo va investitsiyalar bo'yicha tarkibiy cheklovlarni bartaraf etish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish istagidagi davlatlarni qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan.

“ GERMANIYA 2022-YILDA TASHKILOTGA A'ZO MAMLAKATLAR ICHIDA O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI KO'RSATKICHNI QAYD ETIB, JAMI SAVDO AYLANMASINING 2,3 FOIZINI TASHKIL QILGAN. SHUNINGDEK, SO'NGGI YILLARDA GERMANIYA O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMIDA YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN O'NTA MAMLAKAT QATORIDAN JOY OLIB KELMOQDA.

hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi strategiyasi ko'zlangan maqsadlarga erishish yo'lidagi faol hamkorlikka qaratilgan siyosat namunasidir. Shuningdek, O'zbekiston tashabbusi bilan Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo hamkorligini

Transport sohasidagi hamkorlik aloqalaridan biri TRACECA (Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia) loyihasi hisoblanadi. Chunki mintaqaviy darajadagi transport imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatlar jahon iqtisodiyotiga inte-

Jahon iqtisodiyotidagi yirik integratsion birlashmalardan bo'lgan Yevroititfoq yetmish yildan buyon jahon mamlakatlari bilan samarali hamkorlik qilib kelyapti. Yevropa Ittifoqining jahonda mavjud boshqa xalqaro integratsion birlashmalardan farqli jihatini uning integratsion jarayonlar va xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarda erishgan muvaffaqiyatlarida namoyon bo'ladi. Integratsion birlashma tarkibiga kiruvchi mamlakatlar o'rtasida mahsulotlar, kapitallar, ishchi kuchi va xizmatlarning umumiy bozori tashkil etilishi orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga erishilmoqda.

Yevropa Ittifoqi bugungi kunda umumiy savdo-tovar aylanmasi jihatdan dunyoda birinchi o'rinda turadi. Chunki tashkilot jahonning yuzdan ortiq davlati bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda ikki va ko'p tomonlama hamkorlik qilib kelmog'da. Shu bilan birga, savdo-iqtisodiy hamkorlik doirasida dunyodagi turli mintaqalar bilan ham samarali aloqalarni tashkil qilgan.

So'nggi yillarda YI tashqi siyosatidagi hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu mintaqada bilan o'ttiz yildan ortiq davr mobaynida hamkorlikni rivojlantirib kelayotgan Yevropa Ittifoqi o'z tashqi siyosatida ustuvor hisoblagan ayrim yo'nalishlar doirasida alohida strategiyalarini qabul qilgan holda istiqbolli munosabatlarni yo'lga qo'yimoqda.

Bir tomondan Yevropa Ittifoqi, ikkinchi tomondan Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi birinchi keng ko'lami hamkorlik dasturi "Mustaqil Davlatlar Hamdostligiga texnik yordam" (TACIS) bo'ldi. Mazkur dastur MDH mamlakatlariga iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida sa'y-harakatlarida ko'maklashuvchi birinchi tashabbus edi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish borasida amalga oshirayotgan ta'sirchan islohotlari tashkilot va unga a'zo davlatlarning ushbu mintaqaga e'tiborini yanada oshirib, barcha sohalardagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga undamoqda.

Yevropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo davlatlari, ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yuzasidan qator o'zaro manfaatli bitim, shartnomalar imzolagan, ular hozirgi kunda hamkorlik munosabatlarini tashkil etish va rivojlantirishning muhim huquqiy poydevoiri sifatida xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni kuchaytirish, xalqaro iqtisodiy aloqalarni faollashtirish, xorijiy davlatlar bilan imtiyozli savdo-iqtisodiy aloqalarni samarali tashkil etishga qaratilgan islohotlar nafaqat Markaziy Osiyo miqyosida, balki Yevropa Ittifoqi bilan ham hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarning xalqaro va mintaqaviy jihatdan barqarorlikka erishishga qaratilgan tashqi va ichki siyosati, ushbu yo'nalishdagi umumiy maqsadlari ularning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida muhim rol o'ynamoqda. Bu holat mintaqada mamlakatlarning Yevropa Ittifoqi bilan strategik hamkorlik munosabatlarini samarali amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etmog'da.

Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo muloqoti mintaqada mamlakatlari bilan hamkorlikning yangi yo'nalishlarini tashkil etish maqsadida 2004-yil noyabr

O'ZBEKISTON VA JAHON

Haydar FARMON:

"KURASH — HALOLLIK VA

MARDLIK TIMSOLI

Haydar Farmon 2014-yildan buyon Xalqaro kurash assotsiatsiyasi — IKA prezidenti sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Aynan uning sa'y-harakati bilan dunyodagi 130 dan ziyod kurash federatsiyasida bugungi kun talablariga javob beradigan murabbiylar, hakamlar, menejerlar va yo'riqchilar tayyorlandi. Kurash dunyoda keng rivojlanmoqda va Osiyo o'yinlaridan rasman o'rin oldi, Afrika yoshlar o'yinlari dasturiga kiritildi.

Yaqinda Haydar Farmon yurtimizga tashrif buyurgan edi. Fursatdan foydalanib, u bilan suhbatlashdik.



— Janob Haydar Farmon, kurash vatani — O'zbekistonga ko'p tashrif buyurgansiz. Suhbatimiz muqaddimasida yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli ishlohtlar va so'nggi yillardagi o'zgarishlar xususidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

— Esimda, O'zbekistonga birinchi tashrifim 2002-yili bo'lgan edi. O'sha davrdagi va hozirgi O'zbekistonni solishtirish juda qiyin. Chunki birgina Toshkent shahrida qanday o'zgarishlar bo'layotganiga o'z ko'zim bilan guvoh bo'lib turibman. Esingizda bo'lsa, oldinlari xorijliklar tashrif buyurish uchun joylar juda cheklangan edi. Bugun esa yurtimizda keng qamrovli, istiqbolli ishlohtlar amalga oshirilmoqda. Qaysi shaharga bormay, juda ko'p o'zgarishlar, buniyodkorlik ishlariga guvoh bo'lyapman. O'zbekiston qadim va boy tarixga ega yurt. Tarixiy obidalar qayta tiklanib, jahon sayohatlarining sevimli maskanlariga

aylanib bormoqda. Bundan tashqari, moliyaviy sohaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, avvallari valyuta ayirboshlashda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelar edik. Bankda soatlab kutib o'tirish yoki "qora bozor"ga borishga to'g'ri kelgan holatlar ham bo'lgan.

Hozir istalgan bankomatdan pul olishimiz yoki kredit kartamizdan foydalanishimiz mumkin. Bu boshqa davlatlardan kelgan sayyohlar uchun ham juda qulay bo'ldi. Yana bir misol, xalqaro turdagi kredit kartadan foydalanish ko'p davlatlarda juda qiyin. O'zbekiston esa bundan mustasno. Davlatimiz rahbari olib borayotgan ishlohtlar yurtimiz rivoji va ravnaqi uchun xizmat qilishi shubhasiz.

Sport sohasida ham juda katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Boshqacha aytganda, O'zbekiston sport mamlakatiga aylanib bormoqda. Toshkentning o'zida yangi zamonaviy olimpiya shahri qurilyapti. Bu juda ulkan voqeilik.

O'zbekiston allaqachon xalqaro sport tadbirlariga mezbonlik qilmoqda va bemalol ayta olamanki, yanada katta tadbirlarni o'tkazishga ham tayyor. Jumladan, 2025-yilda yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlariga Toshkent shahri mezbonlik qiladi. Ishonamanki, bu tadbir juda yuqori saviyada o'tadi.

— Kurash bugun nafaqat o'zbek millatining, balki yer yuzidagi 100 dan ziyod davlat vakillarining sevimli sport turiga aylanib bo'ldi. Zero, kurash bilan shug'ullanuvchilar va musobaqalarning soni ham kundan-kunga ortib bormoqda. Shu o'rinda, bu borada amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar haqida kengroq ma'lumot bersangiz?

— Darhaqiqat, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil etilgandan beri ku-

rashni rivojlantirish uchun ko'p mehnat qilinyapti. Lekin moliyaviy yordamsiz bunga to'la erishib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kurashni qo'llab-quvvatlash borasidagi qarori bizning bu sport turini qit'alararo, umuman, butun dunyo bo'ylab rivojlantirishdagi faoliyatimiz uchun juda katta ko'mak bo'lmoqda. IKA allaqachon to'rt qit'a bo'yicha kurash musobaqalari o'tkazib kelyapti. Biz beshinchi qit'a sifatida Okeaniyada ham kurashni ommalashtirish dasturi ustida ishlayapmiz.

Har yili dunyo bo'ylab juda ko'plab musobaqalar tashkil etilmoqda. Qit'a chempionatlaridan tashqari turli darajadagi xalqaro turnirlar va kattalar, yoshlar o'rtasida jahon chempionatlari ham bo'lib o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda O'zbekiston Kurash federatsiyasi orqali ko'rsatilyotgan ko'plab yordamlardan IKA oilasidagi milliy federatsiyalar bahramand bo'lmoqda.

Butun dunyoda pandemiya kuzatilgan davrda ham biz to'xtab qolmadik. IKA kurashni dunyo bo'ylab raqamli shaklda rivojlantirish dasturlaridan foydalandi. Kurash usullari, texnikalari yagona tizim asosida "yeKurash" loyihasi ishga tushirildi. O'ylaymanki, bu ko'plab mamlakatlarda kurashchilari va murabbiylari uchun juda foydali bo'ldi.

O'zbekiston hukumati ma'gagi, ayniqsa, Prezident qarori asosida biz kurash bo'yicha Jahon seriyasi deb atalgan musobaqa o'tkazmoqdami. Jahon seriyasi rivojlanish dasturining bir qismi



bo'lib, biz sport dasturini boshqa xalqaro federatsiyalar bilan bir xil darajaga ko'tarishimiz mumkin bo'lgan maxsus formatdir. Umid qilamanki, bunga albatta erishamiz.

— Ma'lumki, kurash nafaqat Osiyo o'yinlari, balki Afrika o'yinlari tarkibida ham bor va Yevropa o'yinlari dasturiga kiritilish arafasida. Bu borada qilinayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlaringiz va fikrlaringiz o'zbekistonlik kurash muxlislari uchun qiziqarli.

— Ha, hozir kurash Osiyoda yaxshi rivojlangan, chunki bu ushbu qit'aning sport turi. U Osiyo o'yinlarining barcha dasturlarida rasmiy sport turi hisoblanadi. Lekin biz boshqa qit'a o'yinlariga ham kurashni rasmiy sport turi sifatida kiritish harakatidamiz. IKA to'rtta qit'a konfederatsiyasi mavjud va hozir ular juda faol harakat qilmoqda. Assotsiatsiya ularni moliyaviy yordam bilan ta'minlashga harakat qilayapti. Bundan tashqari, bizda har yili to'rtta qit'a chempionati o'tkaziladi. Ammo bu biz

uchun yetarli emas. Ko'p sport musobaqalarini o'z ichiga olgan o'yinlar dasturiga kiritilishi kurashning rivojida muhim bosqich hisoblanadi.

Bu borada birinchi qadam Afrika qit'asiga qo'yildi va muvaffaqiyatli bo'ldi. Ya'ni bu qit'a yoshlari o'yinlari dasturida rasman ishtirok etishimiz ma'qullandi.

Tez kunlarda Afrika milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi boshqaruv kengashi a'zolari bilan uchrashamiz. Biz ularga kurashni batafsil tanishtiramiz. Umid qilamanki, uni Afrika o'yinlari dasturiga ham rasmiy sport turlaridan biri sifatida kiritishga erishamiz.

Yevropada biz faolimiz. Allaqachon Yevropa kurash konfederatsiyasi prezidenti janob Mirabe Iliadis Yevropa Olimpiya qo'mitasi prezidenti janob Spiros Kapralos bilan uchrashdi. Unga kurashni yaqindan tanishtirdi. Men janob Kapralosni yaxshi bilaman. U bilan ko'p bora suhbatlashganman. Yaqin vaqtlarda kurashni Yevropa o'yinlarining bir qismi sifatida joriy qilishimiz mumkin. Bu borada IKA jamoasi muntazam ish olib bormoqda.

Panamerika sport o'yinlarida kurashning ishtiroki borasida ham o'z dasturlarimiz bor. Panamerika Kurash ittifoqi tomonidan kurashni o'yinlardagi asosiy sport turlaridan biri sifatida joriy etish maqsadida manfaatdor tashkilotlar bilan aloqalar mustahkamlanmoqda. Umid qilamanki, biz o'z maqsadimizga albatta erishamiz.

— Shu yilning 28-30-aprel kunlari Xitoyning Xanchjou shahrida Kurash bo'yicha kattalar o'rtasida Osiyo chempionati va World Series Pro turnirining qit'aviy saralash bosqichi bo'lib o'tadi. Shu o'rinda World Series Pro turniri haqida gapirib bersangiz. U yangi musobaqalar seriyasimi?

— To'g'ri aytdingiz, joriy yil aprel oyining oxirida Xitoyning Xanchjou



shahrida Kurash bo'yicha qit'a chempionati bo'lib o'tdi. Mazkur chempionat yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun World Series Pro turnirining Osiyo qit'asi saralash bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi.

Endi 2023-yilning 9-13-iyul kunlari Misrning Qohira shahrida World Series Proning Afrika, 20-29-avgust kunlari Dominikan Respublikasida Panamerika, 10-12-oktabr kunlari Italiyaning Rim shahrida Yevropa saralash bosqichlari bo'lib o'tadi.

Bizning jamoamiz ushbu uch qit'adagi tashkiliy qo'mita bilan yaqin hamkorlikda ish olib bormoqda. Saralash bosqichlarida g'olib chiqqan polvonlar noyabr oyida mamlakatimizga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun World Series Pro finalida ishtirok etadi. Bahslar 7 vazn (4 ta erkaklar va 3 ta ayollar) toifasida o'tkaziladi.

Biz O'zbekiston hukumati qo'llab-quvvatlashi bilan g'oliblar uchun pul mukofotlarini ta'bis etdik. O'ylaymanki, bu qadam kurashning yanada rivojlanishiga katta xizmat qiladi. Bu bilan ishlar to'xtab qolmaydi. Xalqaro sport jamoatchiligi, ommaviy axborot vositalarida o'zbek kurashini butun dunyoda keng tanitishni maqsad qilganmiz. Umid qilamanki, kurashni butun dunyo tan oladi. Chunki kurash — halollik va mardlik timsoli.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Gulichehra DURDIYEVA suhbatlashdi.

YANGI GACHA YONDASHUVLAR

MALAKA OSHIRISH ZARURATI PROFESSIONAL TA'LIM ISTIQBOLINI BELGILAYDI

Zayniddin XUDOYBERDIYEV, Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti direktori, professor



Mamlakatimiz iqtisodiyoti ravnaqida bozor mexanizmlarining shakllanishi hamda barqarorlashuvi o'qitishning barcha bosqichida, jumladan, professional ta'limda ham yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muhimligi va zarurligini ko'rsatadi. Bu esa bozor talablari asosida professional ta'lim tizimini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mutaxassislar mehnat bozorida o'z yo'lini oson topishi uchun kasbiy kompetentga ega bo'lishini taqozo etmoqda.

Endi professional ta'lim tizimining rahbar va pedagog xodimlari nafaqat pedagogika, psixologiya yo'nalishidagi bilimlarga, shu bilan birga, ma'muriy boshqaruv ko'nikmasiga ega bo'lishi talab qilinadi. Ayni paytda ishlab chiqarish, moliyaviy menejment, marketing va resurslar bilan ta'minlash vazifalarining o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda qaror qabul qilish, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish natijalari asosida boshqaruv faoliyatini tashkil eta bilishi lozim. Mazkur jarayonlar professional o'quv muassasalarining iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish bilan birga,

ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish, sifatini oshirish va o'z navbatida, sohada zamonaviy fikrlaydigan, uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyor boshqaruv xodimlariga ehtiyojni oshirmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunga asosan, kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi. Kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshirishga xizmat qiladi.

Muntazam kasbiy mahorati, bilimi, ko'nikmalarini yangilab borish, yuqori samarali yangi axborot-kommunikatsiya va innovat-

sion texnologiyalarni, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, boshqaruvning zamonaviy tendensiyalarini o'zlashtirishda iqtisodiyotning turli sohasidagi boshqaruv xodimlari uchun malaka oshirish jarayoni juda muhim. Mazkur holat, o'z navbatida, uzluksiz malaka oshirishga ehtiyojni yuzaga keltiradi va shu yo'nalishdagi muammolarni ilmiy tadqiqot sifatida o'rganish uchun ham asos vazifasini o'taydi.

Shu bois, professional ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirishning qator shakllari nazarda tutilgan. Asosiy ishdan bo'shagan va bo'shamagan holda OTMlari huzuridagi tarmoq markazlarida va Pedagogik innovatsiyalar institutida malaka oshirmoqda. Bilim va ko'nikmani mustahkamlashning boshqa to'g'ridan-to'g'ri shakllari nisbatan juda kam qo'llangan va ayrimlari bo'yicha jarayonni tashkil etish qo'shimcha me'yori hujjatlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Buguning talablariga javob berish uchun, eng avvalo, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi, avvalo, ta'lim tizimida yuz berayotgan muammo



va jarayonlarga mos, asoslangan va yetarli darajada ishonchli metodologik bazani tanlashi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, malaka oshirish tizimidagi muammoli va ziddiyatli vaziyatlarni o'qitish jarayoni rivojlanishining asosiy g'oyalari hamda tamoyillariga tayangan holda ko'rib chiqish dardkor.

Uchinchidan, malaka oshirish tizimining asosiy konseptual rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish usullari bo'yicha aniq takliflarga zarurat mavjud.

Uzluksiz ta'lim nazariyasining konseptual holatlardan farqli o'laroq, katta-

lar ta'limi nazariyasi va amaliyoti asosida yoshi katta odam tabiatidan kelib chiqqan tamoyillar yotadi. Katta yoshli odam ehtiyoj sezmaguncha o'qimaydi. U faqat o'z fikriga ko'ra, zarur ko'nikmalarni o'rganadi va ish jarayonida o'qiydi. Boshqacha qilib aytganda, yoshi katta odam ta'lim jarayonida, aniqrog'i, uning barcha parametrlarini aniqlashda yetakchi rolni o'ynashga tayyor.

Xorij tajribasiga ko'ra, o'qitishning innovatsion modeli asosida katta yoshlilar ta'limining nazariyasi va amaliyoti muayyan holatda shakllantirilgan. Jumladan, ta'lim oluvchining tajribasidan o'qitish

mazmunini belgilovchi manbalardan biri sifatida foydalaniladi.

XXI asrda yetakchi davlatlardagi malaka oshirish tizimida ochiq va yopiq kurslarni tashkil etish kasbiy rivojlanishda muhim omildir. Qisqa muddatli kurslarni tashkil etishda asosiy e'tiborni o'quv-uslubiy ta'minotni yaratishga qaratish kerak. Zero, malaka oshirish tizimini takomillashtirish o'qitish sifatini ta'minlaydigan asosiy omillardan. Bu jarayonda professional ta'lim mutasaddilari, soha mutaxassislari va pedagoglar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish, faoliyatini muvofiqlashtirish zarur bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini ilg'or xorij tajribasi (Singapur, Germaniya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Yaponiya) asosida takomillashtirish, kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan bilim, malaka-ko'nikmalarning hayot davomida egallanishini qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

Professional ta'limda malaka oshirish sifatini yuksaltirishda boshqaruv va pedagog xodimlarning shaxsiy tashabbusi asosida ta'lim olishga ehtiyoj, motivatsiyasini rivojlantirish, o'quv jarayonida o'zaro ishonch va xayrixohlikka asoslangan hamkorlik muhitini yaratish, ta'lim dasturlarini amalga oshirishning modulli tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda katta yoshdagilar ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini bor. Shaxsiy va kasbiy jihatlarining o'zaro bog'liqligi, yetakchilik roli, kasbiy, ijtimoiy, maishiy va amaliy tajriba kabi omillarni hisobga olish, kasbiy faoliyat maqsadlari, vazifalari, natija va ehtiyojlariga muvofiqligi asosida o'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirib borish muhim sanaladi.

MEZON

Maqom san'atida TENGSIZ IQTIDORLAR KASHF ETILADI

“Yangi o'quv dasturlariga qator fanlar kiritilib, muassasalar zarur mutaxassislar bilan ta'minlandi. Xususan, bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun yangi “Maqom alifbosi” fanining maxsus adabiyoti yaratildi.

**Aziz ZOKIROV,
Yunus Rajabiy nomidagi
Milliy musiqa san'ati instituti
prorektori**

O'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi va undagi Shashmaqom buyukligi, badiiy-estetik imkoniyatlari bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Maqom xalqimizga berilgan ulkan ma'naviy merosdir. Musiqaning oliy namunasi sifatida yaratilgan bu nodir meros asrlar davomida asrab-avaylab kelingan. Maqom san'ati ikki jarayon — ijodiy va ilmiy mahsullar uyg'unligi hamda jonli ijrochilik mezonini negizida yotadi.



XXI asrga kelib maqomlar, xususan, Shashmaqom ijrochiligi turli munosabatlarda ta'sirida rivojlanib boshladi. Shashmaqomni o'rganish va uni ijro etish masalalarida, eng muhimi, zamonaviy ijodiyotda turli qarashlar shakllandi. Bugun ham maqomlar tadqiqoti va ijodiyotida turfa munosabatlar yuzaga kelmoqda.

To'g'ri, maqom murakkab va “xos”lar san'atidir. Lekin hozirgi zamon taraqqiyotida maqom san'atini keng joriy qilishda, albatta, yangicha yo'nalishlar va usullarda ish olib borish davr talabi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqom san'atini takomillashtirishda, eng avvalo, azaliy ijro an'analari asnosida yangi ijod namunalarini yaratish bilan mumtoz musiqani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan 20 dan ortiq qaror va farmoni sohada yangicha munosabatlarni shakllantirdi. Bugun milliy musiqa san'ati sohasining ta'lim jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda, ilmiy tadqiqot ishlari va ijrochilik mahoratini yaxlit tizim asosida uyg'un rivojlantirish hamda ta'lim va madaniyat muassasalarining integratsiyalashgan tizimi, ya'ni milliy musiqa san'ati klasterini yaratishga muayassar bo'ldi.

Albatta, har bir amal uning to'g'ri o'ylan-gan rejasini samaradorligi bilan bog'liq. Ko'zlangan natijaga erishish uchun maqom san'atining uchta — ilmiy, nazariy hamda amaliy mezonlari bo'yicha ish olib borish ko'zda tutildi:

— maqom san'atining azaliy an'analari qayta tiklash va jonlantirish bilan bog'liq ilmiy, ta'lim hamda amaliyotdagi ustoz-shogird an'analari davr talabiga mos holda yangicha zamonaviy ko'rinishda shakllantirish;

— maqom san'ati tarbiyasi, ya'ni ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish va boshlang'ich ta'limdan boshlab rivojlanish integratsiyasining yagona tizimini shakllantirish;

— o'rganish va targ'ibot masalasini xalqaro miqyosda tilliylik negizida olib chiqish.

Bu uch jarayonni amalga oshirish strategiyasida ilmiy tadqiqot, amaliyot va bevosita amalga oshirish mezonlarining oqilona yo'li ta'lim bilan bog'liq. Shu bois, ayni jarayonga katta e'tibor qaratilib, ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish va muqobil tizim yaratishga kirishildi.

Ilk qadam sifatida azaliy an'analarni shakllantirishda rahnamolik qiladigan ikki ixtisoslashgan markaz — O'zbek milliy maqom san'ati markazi va Baxsh-



chilik san'ati markazi davlat muassasasi sifatida ta'xis etildi.

Markazlarning asosiy vazifasi — maqom va baxshchilik san'atini ilmiy jihatdan o'rganish, tarixiy va nazariy asoslarini qayta tadqiq etish, ijrochilik yo'nalishlarini bilimdon ustozlar boshchiligida o'zlashtirish hamda ijrochilik amaliyoti bo'yicha respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar, festivallar, tanlovlar tashkil etish. Shuningdek, bu san'at turlariga tegishli ilmiy tadqiqot bo'yicha risolalar, monografiyalar, ensiklopediyalar, lug'atlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, nota to'plamlarini yaratish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish ham ushbu vazifalar sirasiga kiradi.

Maqom san'atini qayta rivojlantirish, bevosita maqom ijrochiligining zamonaviy ko'rinishini shakllantirish borasida qator yo'nalishlarda tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

— 2018-yildan boshlab o'n uchta viloyatda namunaviy maqom ansambllari tashkil etilib, ularga yosh, bilimdon ijrochilar va tajribali ustozlar ta'lim-tarbiya berishga jalb qilindi;

— 2019-yildan boshlab maqom san'atining zamonaviy ijodiyotini davr talabi bilan muvofiqlashtirish masalasida “Maqomlar asosida yaratilgan eng yaxshi kompozitorlik asari”, “Eng yaxshi bastakorlik asari” va musiqashunoslar o'rtasida “Eng yaxshi yaratilgan o'quv adabiyoti” nominatsiyalari bo'yicha respublika tanlovlarini muntazam o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu tanlovlar 3-4 yildan beri ijobiy natija ko'rsatmoqda. Ayniqsa, kompozitorlarning yangi zamonaviy asarlari, bastakorlarning yangi maqom asarlari va musiqashunoslarning monografiya, o'quv adabiyoti va nota to'plamlari o'quv tizimini isloh qilishda samarasini bermoqda. Quvonarlisi, bu an'anaga aylanib, eng quyi tizimlarda ham tanlovlar o'tkazish tobora odatiy tus olyapti. Viloyatlarda tumanlararo har yili o'tkazib kelinayotgan yosh maqom ijrochilari tanlovlari misolida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin;

— 2019-yili Marg'ilon shahrida maqom san'atiga yo'naltirilgan va ushbu san'at turini sahna mahorati orqali targ'ib etishga mo'ljallangan maqom teatri tashkil etilib, har yili 3-4 ta yangi spektakl yaratilmoqda. Teatrning maqomga asoslangan spektakl-

larida umuman yangi yo'nalish, mumtoz musiqa san'ati orqali maqomlarni tinglash va undan bahra olishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. IV yoshlar teatr san'ati xalqaro forumida namoyish etilgan “Navoiy” maqom spektakli mutaxassislar olqishiga sazovor bo'lib, jamoaga mutlaq g'oliblik keltirdi. Bu orqali maqsadli yo'nalish o'zini oqlayotganini, spektakllarning musiqiy negizi, asosan, maqom namunalaridan tashkil topganini ko'rish mumkin;

— 2020-yili Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilib, maqom san'ati integratsiyasini muvofiqlashtirish mezonlarida asosiy yetakchilik vazifasini bajaradigan oliy ta'lim muassasasi sifatida ish boshlandi. 2021-yildan magistratura, 2022-yildan esa doktorantura bo'limlari faoliyat boshladi va hozir maqom san'atini ilmiy tadqiq etish borasida izlanishlar olib borilmoqda;

— 2021-yildan boshlab yangi — milliy bastakorlik kafedrasini tashkil etildi;



— maqom san'atiga ixtisoslashgan ta'lim jarayonining yangi bosqichi oliy ta'limda muayyan yo'nalishga asoslangan maxsus ta'lim muassasalarini tashkil etishdan boshlandi. Bunga O'zbekiston davlat konservatoriyasida deyarli 50 yildan beri mavjud o'zbek maqom tarixi va nazariyasi (avvalgi Sharq musiqasi) kafedrasiga asoslanib, maqom san'ati fakulteti tashkil etildi. Konservatoriya o'quv jarayoni jadvallari maqomga ixtisoslashtirilgan fanlar bilan boyitildi;

— oliy ta'limga tayyorlovchi baza sifatida Buxoro, Urganch, Farg'ona hamda Toshkent shaharlarida maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan yangi mintaqaviy (lokal) maktab-internatlar, baxshchilik san'atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internatlari tashkil etilib, 5, 6, 7-sinflarga iqtidorli o'quvchilar tanlab olindi. Ularga yangidan maqom san'atiga moslashtirilgan o'quv rejalari, o'quv-fan dasturlari va ustoz-shogird an'analari asoslangan holda yangicha ta'lim berish boshlandi;

— yangi o'quv dasturlariga qator fanlar kiritilib, muassasalar zarur mutaxassislar bilan ta'minlandi. Xususan, bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun yangi “Maqom alifbosi” fanining maxsus adabiyoti yaratildi;

— 2020-yili maqom san'atiga ixtisoslashgan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'tiladigan tarixiy, nazariy va ixtisoslik fanlarini tubdan yangiladi. Talabalar uchun “O'zbek maqom tarixi va nazariyasi” fani kiritildi. Barcha yo'nalishlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, fan dasturi va o'quv adabiyotlari tayyorlandi, o'quv jarayoniga tatbiq etildi;

— an'anaviy yo'nalishda ta'lim olayotgan barcha talabalar uchun maxsus “Aruz va musiqa”, “Maqom turkumidagi g'azallar poetikasi”, “Aruz va ritm”, “Maqom solfejosi” fanlari joriy qilindi. Bu fanlar bo'yicha alohida mutaxassis taklif etilib, ta'lim jarayoni yo'lga qo'yildi;

— magistratura bosqichiga esa “Sharq xalqlari maqomlari”, “Maqom zamonaviy kompozitorlik va bastakorlik ijodiyotida” kabi fanlar kiritildi. Bu milliy bastakorlik san'ati yo'nalishida ushbu sohaning zamonaviy avlodini tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Albatta, yangi fanlar va yangi yo'nalishlar joriy qilinishi bevosita mahorati mutaxassislariga ehtiyojni oshiradi. Zero, maqom san'ati mukammal janr va uning negizida ijodiy mezon alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni jarayon mutaxassislarini topish va jalb etish masalalarida qo'l keladi. Institutdagi ta'lim jarayonining amaliy ijrochilik bilan bog'liqligi va unga katta e'tibor qaratilishi ham muammoga yechim bo'la oladi.

Zamonaviy jarayon davr talabi darajasida munosabatlarni talab etadi. Yangi pedagogik texnologiyalar, ijrochilik maktablari va uslublarining shakllangan an'analari o'zlashtirish har bir ijrochidan ijodiy yondashishni talab qiladi. Bu jarayon yangicha talqinlar va yangicha sayqallangan asarlar ijrosini kashf etadi.

Masalan, ta'limga “Aruz va musiqa”, “Maqom turkumidagi g'azallar poetikasi”, “Aruz va ritm”ning kiritilishi va mutaxassisning mashg'ulotlari talabalarni nafaqat musiqiy, balki badiiy jarayonning musiqa bilan hamohang rivojlanish an'analari o'zlashtirishga undaydi, yangicha

qarashlar bilan musiqiy tafakkurning shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, “Maqom solfejosi”ning milliy ohanglardagi namunalarini ularni kuylash texnikasi, metro-ritmik formulalarining milliy negizda rang-barang ko'rinishda ijro etilishi har qanday talabani mustaqil ijodga chorlashi muqarrar.

Muammolar hamisha bo'lgan. Agar ular bo'lmasa, rivojlanish ham bo'lmaydi. Masalan, maqomlar ijrosida azaldan nimparda muammosi bo'lgan. To'g'rirog'i, ijro amaliyotida ustoz san'atkorlarning ijro talqinlarida go'zal ifodalangan. Lekin uning muayyan nazariyasini yaratish doimo muammo bo'lib kelgan. Buning birinchi sababi tinglovchilarning qulog'iga Yevropacha uslubdagi lad va tovushqatorlar deyarli 1 asr davomida muhranib qolganidir. Ularni o'rgatish uchun davlat ta'lim jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak. Bu borada Maqom markazi va institutning yetakchi musiqashunos olimlari va ustoz sozandalari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari ilmiy borilmoqda. Birlamchi yutuqlar ham mavjud. Qayd etish joizki, bu jarayon XVI asrda mavlono Abdurahmon Jomiy tomonidan boshlab berilgan. To'g'ri, o'zbek maqomlarining ijrochilik san'atida asosiy omil ijrochi tomonidan amalga oshirilishi va nimpardali ohang tarannumi ham aynan ijrochi qaroriga bog'liq ekanini o'z isbotini topmoqda. Yaqin kunlarda Maqom markazining ilmiy tadqiqot sho'basini va institutimiz olimlari tomonidan bu masalaga oydinlik kiritilib, o'zbek milliy musiqa nazariyasi ta'lim jarayoniga tatbiq etiladi.

Bu kabi harakatlar maqom ijrochilik amaliyotiga o'ziga xos o'zgarishlar olib kelishi muqarrar. Hozirning o'zida bunday nimpardalar bilan ijro etishga urinishlar bor. Maqomlar va mumtoz musiqa ijrochiligidagi yangicha talqinlar, musiqa namunalarining asl mavzusi, kuy saqlangan holda, turli naqsh hamda bezaklar, tembrli ohanglar bilan rang-barang ijro etish ommalashmoqda. Masalan, maqom ansambli xalq orasida keng ommalashgan “Munojo” ashulasini ana shunday yangicha ohanglar bilan bezab ijro etdi. Buni zamonaviy ijrochilikda yangi tendensiya deb qabul qilish o'rinni bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, institutning asosiy ta'lim mezonini, funksiyasini o'zbek milliy musiqa merosini asl holda qaytadan tiklash, ularni zamon talabari doirasida talqin etishga erishishdir. Shuningdek, ularning an'analari saqlangan holda, zamon va makonlarga xos unsurlar bilan boyitib, yangi ijro namunalarini shakllantirish hamda zamonaviy tasvirlarda xalqimizga taqdim etishdan iborat. Umid qilamizki, yangi oliy dargoh bu borada ishonchni oqlab, bebaho san'atimizning ko'plab zabardast vakillarini kamolga yetkazadi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.

41011 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbachi muharrir: Abdurafiq Qorjovov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy